O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA’LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali

2026-YIL 5-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: *Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov*
Mas'ul muharrir: *Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov*
Mas'ul muharrir o'rinbosari0: *Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedogogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev*

T A H R I R H A Y ' A T I

Aniq va tabiiy fanlar: *k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.*
Texnika fanlari: *t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.*
Ijtimoiy-gumanitar fanlar: *s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.*
Pedagogika fanlari: *p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d.,dost. M.Asqarova, PhD S.Jamoldinova, PhD, dots. M.Asranboyeva.*
Filologiya fanlari: *fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD.,dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev.*

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.
Pochta indeksi: 160136, ***Faks:*** (0369) 227-27-21,
Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi ***Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi*** *asosida chop etiladi. Jurnal* ***Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha*** *falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.*

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2026

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

MAKTAB GEOGRAFIYA KURSIDA O'ZBEKISTON SANOAT TARMOQLARINI KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA O'RGANISH MASALALARI

Ergashev Sirojiddin Abdig'offorovich
Namangan davlat pedogogika instituti, G.f.f.d (PhD)
E-mail: esirojoddin957@gmail.com
Rahimov Ixtiyor Baxtiyor o'g'li
Namangan davlat pedogogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: ixtiyorraximov565684@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktab geografiya kursida O'zbekiston sanoat tarmoqlarini klasterli yondashuv asosida o'rganishning didaktik imkoniyatlari, metodik xususiyatlari va ta'limiy ahamiyati yoritilgan. Sanoat klasterlarini o'rganish orqali o'quvchilarda iqtisodiy-geografik fikirlash, hududiy tahlil, tizim-tarkib asosida fikrlash va amaliy kompetensiyalarni rivojlantitrish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, paxta-to'qimachilik, avtomobilsozlik, neft-gaz va boshqa sanoat tarmoqlarini klasterli yondashuv asosida o'quvchilarga yetkazish hamda interaktiv ishlanmalar taklif etilgan.*

Kalit so'zlar: *geografiya ta'limi, sanoat tarmoqlari, sanoat klasteri, klasterli yondashuv, iqtisodiy geografiya, hududiy ixtisoslashuv, ishlab chiqarish, iqtisodiy-geografik tafakkur, kompetensiyaviy yondashuv.*

ВОПРОСЫ ИЗУЧЕНИЯ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА В ШКОЛЬНОМ КУРСЕ ГЕОГРАФИИ НА ОСНОВЕ КЛАСТЕРНОГО ПОДХОДА

Аннотация. *В данной статье освещаются дидактические возможности, методические особенности и образовательное значение изучения отраслей промышленности Узбекистана в школьном курсе географии на основе кластерного подхода. Анализируются вопросы формирования у учащихся экономико-географического мышления, навыков территориального анализа, системного мышления и практических компетенций посредством изучения промышленных кластеров в тесной взаимосвязи с географическими знаниями. Кроме того, предлагаются методы преподавания таких промышленных направлений, как хлопково-текстильная промышленность, переработка плодоовощной продукции, автомобилестроение, нефтегазовая промышленность и другие отрасли, на основе кластерного подхода, а также интерактивные задания.*

Ключевые слова: *географическое образование, отрасли промышленности, промышленный кластер, кластерный подход, экономическая география, территориальная специализация, производство, экономико-географическое мышление, компетентностный подход.*

ISSUES OF STUDYING THE INDUSTRIAL SECTORS OF UZBEKISTAN THROUGH A CLUSTER-BASED APPROACH IN THE SCHOOL GEOGRAPHY CURRICULUM

Abstract. *This article explores the didactic opportunities, methodological features, and educational significance of studying Uzbekistan's industrial sectors through a cluster-based approach in the school geography curriculum. It analyzes how the study of industrial clusters in connection with geographical knowledge contributes to the development of students' economic-geographical thinking, territorial analysis skills, systematic thinking, and practical competencies. The article also proposes teaching methods and interactive tasks based on the cluster approach for various industrial sectors, including cotton-textile production, fruit and vegetable processing, automobile manufacturing, oil and gas, and other industries.*

Keywords: *geography education, industrial sectors, industrial cluster, cluster-based approach, economic geography, territorial specialization, production, economic-geographical thinking, competency-based approach.*

KIRISH

Iqtisodiyotning hududiy tashkil etilishi, ishlab chiqarish tarmoqlarining o‘zaro to‘planishi va sanoat klasterlarining rivojlanishi mamlakatlarning iqtisodiy rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston iqtisodiyotida ham sanoatni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish tizimlarini mahalliy xomashyo asosida qurish, qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda hududlar imkoniyatidan unumli foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mazkur jarayonlarni maktab geografiya darslarida o‘rganib borish o‘quvchilarning mamlakat iqtisodiyoti, sanoat tarmoqlarining hududiy tashkil etish va ishlab chiqarish integratsiyasi haqidagi bilimlarini kengaytiradi. Ayniqsa, sanoat tarmoqlarini alohida-alohida emas, ishlab chiqarish tizimi sifatida o‘rganish geografiya ta’limining mazmunini yanada ortiradi.

Klasterli yondashuv sanoat korxonalari, xomashyo yetkazib beruvchilar, qayta ishlash tashkilotlari, logistika tizimi, ilmiy-tadqiqot muassasalari va xizmat ko‘rsatish korxonalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni yaxlit tizim sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Maktab geografiya darslarida ushbu yondashuvdan foydalanish o‘quvchilarga, masalan, paxtaning yetishtirilishidan tortib tayyor mahsulotigacha bo‘lgan ishlab chiqarish tizimini yoki avtomobilsozlikda ehtiyot qismlar, yig‘ish korxonalari va logistika tizimining o‘zaro bog‘liqligini tushunishga yordam beradi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Maqolaning maqsadi maktab geografiya kursida O‘zbekiston sanoat tarmoqlarini klasterli yondashuv asosida o‘rganishning metodik imkoniyatlarini aniqlash va ta’lim jarayonida qo‘llashga doir tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish maqsad qilib olingan. Bu maqsadni amalga oshirish uchun to‘qimachilikda ip kalavani qayta ishlash darajasini 100 foizga yetkazish hamda yuqori sifatli matoga talabni qondirish uchun 400 ming tonna sun’iy va aralash tola ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish belgilangan [2].

Sanoat tarmoqlarini hududiy tashkil etishda iqtisodchi olim M. Porterning hissasi katta, olim sanoat tarmoqlarini “klaster” usulida joylashtirish haqida fikr yuritadi va klasterga “ma’lum bir hududda faoliyat ko‘rsatadigan, geografik jihatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan, umumiy faoliyat turi bilan ajralib turadigan va bir-birini to‘ldirib turadigan korxonalar hamda ularga tegishli tashkilotlar guruhi” deya ta’rif berdi [3,4]. Ushbu yondashuv sanoat tarmoqlarini o‘zaro aloqador tizim sifatida o‘rganish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

G.A.Yashevoy tarifiga ko‘ra, klaster bu-bir ilmiy-ma’rifiy markazi atrofida birlashgan geografik yaqin hududdagi ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi hamkorlik va munosabatlari bilan bog‘liq to‘ldiruvchi bir tarmoq tashkilot [5] deb izohladi.

A. Marshall sanoat korxonalarining hududiy yaqinligi va ixtisoslashuvining iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini tadqiq etgan [6]. Uning qarashlari sanoatning muayyan hududlarda to‘planishi, mehnat resurslari va ishlab chiqarish aloqalarining shakllanishini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega.

P. Krugman iqtisodiy faoliyatning hududiy jamlanishi va ishlab chiqarishning geografik joylashuviga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilgan [7]. Bu yondashuv sanoat korxonalarining tabiiy resurslar, transport, bozor va mehnat resurslariga nisbatan joylashuvini o‘rganishda qo‘l keladi.

R. Obidovning fikriga ko‘ra, klaster-aniq bir sohada texnologik zanjirga birlashgan, bir geografik hududda joylashgan, bir biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan xo‘jalik subyektlari va rivojlanish institutlari guruhi bo‘lib, ular bir-biri bilan uzviy aloqada va bir maqsad uchun raqobatbardoshligini ta’minlash yo‘lida o‘zaro birlashtiruvchi jarayondir [8] deb fikr bildirdi.

O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi va sanoat tarmoqlariga oid statistik ma’lumotlar Davlat statistika agentligi materiallarida yoritilgan [9]. Jahon banki hamda UNIDO tadqiqotlarida esa sanoatni rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligi va hududiy iqtisodiy integratsiya masalalariga e’tibor qaratilgan [10; 11].

Geografiya ta’limiga oid ilmiy-metodik manbalarda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi va amaliy topshiriqlarni bajarishi ta’lim samaradorligini oshiruvchi omillar sifatida qayd etiladi [12; 13]. Ushbu ilmiy qarashlar sanoat klasterlarini geografiya darslarida loyiha, xarita, jadval va guruhli tahlil metodlari orqali o‘rganish zarurligini asoslaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, klasterli yondashuv sanoat tarmoqlarining hududiy joylashuvi, ishlab chiqarish bosqichlari va iqtisodiy aloqalarini kompleks o‘rganishga imkon beradi. Shu jihatdan uni maktab geografiya kursiga tatbiq etish o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, iqtisodiy-geografik tahlil, xaritalar bilan ishlash va pedagogik loyihalash metodlaridan foydalanildi.

Maktab geografiya kursida O‘zbekiston sanoat tarmoqlarini klasterli yondashuv asosida o‘rganish quyidagi bosqichlarda tashkil etilishi taklif qilinadi:

1. Nazariy tushuncha berish. O‘quvchilarga klaster, ixtisoslashuv, kooperatsiya, ishlab chiqarish zanjiri va hududiy joylashuv tushunchalari izohlanadi.

2. Sanoat tarmoqlarini aniqlash. O‘zbekistonning yetakchi sanoat yo‘nalishlari va ularning hududiy xususiyatlari o‘rganiladi.

3. Ishlab chiqarish aloqalarini tahlil qilish. Xomashyo, qayta ishlash, tayyor mahsulot, transport va iste’mol bozori o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlanadi.

4. Kartografik tahlil. Sanoat korxonalari va klasterlarning joylashuvi xaritada belgilanadi.

5. Amaliy loyiha tayyorlash. O‘quvchilar tanlangan sanoat klasteri bo‘yicha sxema, xarita, taqdimot yoki iqtisodiy-geografik tavsif yaratadi.

Ushbu bosqichlar o‘quvchilarning geografik bilimlarni o‘zlashtirishi bilan bir qatorda, ma’lumotlarni izlash, saralash, tahlil qilish va xulosalash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Maktab geografiya kursida O‘zbekiston sanoat tarmoqlarini klasterli yondashuv asosida o‘rganishda mamlakatning tabiiy resurslari, mehnat salohiyati, transport infratuzilmasi va iqtisodiy-geografik o‘rni bilan bog‘liq misollardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Paxta-to‘qimachilik klasterini o‘rganish. Paxta-to‘qimachilik klasteri o‘quvchilarga qishloq xo‘jaligi va sanoat o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni tushuntirish uchun qulay misol hisoblanadi. Ushbu klasterda paxta yetishtirish, uni qayta ishlash, ip-kalava ishlab chiqarish, mato to‘qish, tikuv-trikotaj mahsulotlarini tayyorlash va tayyor mahsulotni sotish jarayonlari o‘zaro bog‘liq holda o‘rganiladi.

Darsda quyidagi ishlab chiqarish zanjiridan foydalanish mumkin:

Paxta yetishtirish → paxtani qayta ishlash → ip-kalava → mato → tikuv-trikotaj mahsulotlari → ichki va tashqi bozor.

O‘quvchilarga ushbu jarayonning qaysi bosqichlari qaysi hududlarda rivojlanganini xaritadan aniqlash vazifasi beriladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Meva-sabzavotni qayta ishlash klasterini o‘rganish. Meva-sabzavotchilik va oziq-ovqat sanoati o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishda Farg‘ona vodiysi, Samarqand, Surxondaryo va boshqa hududlardan misollar keltirish mumkin. Bunda meva-sabzavot yetishtirish, saralash, saqlash, quritish, konservalash, qadoqlash va transport orqali iste’molchiga yetkazish jarayonlari tahlil qilinadi.

Mazkur klasterni o‘rganish orqali o‘quvchilar tabiiy-geografik sharoit, qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvi va sanoat korxonalarining joylashuvi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunadilar.

Avtomobilsozlik klasterini o‘rganish. Avtomobilsozlik sanoati ko‘plab ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlari bilan bog‘liq. O‘quvchilar avtomobil ishlab chiqarishda metallurgiya, kimyo sanoati, elektrotexnika, plastmassa mahsulotlari, ehtiyot qismlar ishlab chiqarish va logistika tizimining o‘rnini o‘rganadilar.

Ushbu mavzuni o‘qitishda quyidagi sxemadan foydalanish mumkin:

Xomashyo va materiallar → ehtiyot qismlar ishlab chiqarish → avtomobil yig‘ish → sifat nazorati → transport va savdo.

O‘quvchilar avtomobilsozlikning hududiy joylashuvi, sanoat kooperatsiyasi va boshqa tarmoqlar bilan aloqalarini tahlil qiladilar.

Neft-gaz va kimyo sanoati klasterini o‘rganish. Mazkur klasterda tabiiy gaz va neft qazib olish, ularni qayta ishlash, kimyoviy mahsulotlar, polimerlar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlari o‘rganiladi. Bunda xomashyo bazasi, energetika ta’minoti, suv resurslari, transport va ekologik omillarning sanoat joylashuviga ta’siri tahlil qilinadi.

Elektrotexnika sanoati klasterini o‘rganish. Elektrotexnika sanoatini o‘rganishda elektr jihozlari, maishiy texnika, kabel mahsulotlari va boshqa elektr uskunalarini ishlab chiqarish jarayonlari o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. O‘quvchilar mazkur tarmoqning malakali mehnat resurslari, texnologik rivojlanish va transport infratuzilmasiga bo‘lgan ehtiyojini aniqlaydilar.

Klasterli yondashuv asosida dars tashkil etish usullari

Metod	**Dars jarayonida qo‘llanilishi**	**Rivojlantiriladigan ko‘nikma**
Klaster sxemasi	Sanoat tarmoqlari va ularning aloqalarini chizish	Tizimli fikrlash
Iqtisodiy xarita tahlili	Sanoat markazlarini xaritada aniqlash	Kartografik savodxonlik
Guruhli loyiha	Muayyan sanoat klasterini o‘rganish	Hamkorlik va izlanish
Muammoli ta’lim	Korxona joylashuviga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash	Tahliliy fikrlash
Ishlab chiqarish zanjiri	Xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo‘lgan bosqichlarni tuzish	Sabab-oqibat aloqalarini anglash

Amaliy mashg‘ulot namunasi

Mavzu: O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterining iqtisodiy-geografik xususiyatlari.

Mashg‘ulot maqsadi: O‘quvchilarda sanoat klasterining tarkibiy qismlari, hududiy joylashuvi va ishlab chiqarish aloqalarini tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Topshiriqlar:

A) Paxta-to‘qimachilik klasterining asosiy ishlab chiqarish bosqichlarini ketma-ket joylashtiring.

B) O‘zbekiston xaritasidan paxta yetishtirish va to‘qimachilik sanoati rivojlangan hududlarni aniqlang.

C) Xomashyo yetishtirish va tayyor mahsulot ishlab chiqarish o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni tushuntiring.

D) Klaster rivojlanishida transport va mehnat resurslarining ahamiyatini izohlang.

E) Mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlashning iqtisodiy afzalliklarini asoslang.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Kutiladigan natija: o‘quvchilar sanoat klasterining tarkibiy tuzilishini tushuntiradi, ishlab chiqarish zanjirini sxemada ifodalaydi, iqtisodiy xaritadan foydalanadi va hududiy iqtisodiy aloqalar bo‘yicha xulosa chiqaradi.

Sanoat tarmoqlarini klasterli yondashuv asosida o‘rganish maktab geografiya ta’limining amaliy yo‘nalishini kuchaytiradi. Chunki o‘quvchilar sanoat korxonalarini faqat geografik joylashuviga qarab emas, balki ular o‘rtasidagi xomashyo, texnologiya, mehnat, transport va bozor aloqalari nuqtayi nazaridan ham tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Mazkur yondashuvning muhim jihati shundaki, u iqtisodiy geografiya, tabiiy geografiya, ekologiya, matematika va axborot texnologiyalari fanlari o‘rtasida fanlararo integratsiyani ta’minlaydi. Masalan, sanoat korxonalarining joylashuvini o‘rganishda geografik xaritalar, statistik ma’lumotlar va diagrammalardan foydalanish o‘quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantiradi.

Shuningdek, klasterli yondashuv orqali sanoatning ekologik jihatlarini ham o‘rganish mumkin. Ishlab chiqarish jarayonida suv va energiya sarfi, chiqindilarni qayta ishlash, atmosferaga chiqariladigan moddalar hamda ekologik xavfsizlik masalalarini tahlil qilish o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantiradi.

Biroq mazkur yondashuvni ta’lim jarayoniga tatbiq etishda ayrim muammolar mavjud. Jumladan, sanoat klasterlariga oid yangilanib boruvchi statistik ma’lumotlarning yetishmasligi, iqtisodiy xaritalarning muntazam yangilanmasligi va metodik materiallarning cheklanganligi dars samaradorligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli geografiya o‘qituvchilari rasmiy statistik ma’lumotlar, elektron xaritalar, sanoat korxonalarining ochiq ma’lumotlari va raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishlari lozim.

Klasterli yondashuvni samarali qo‘llash uchun har bir sanoat tarmog‘ini hududiy xususiyatlar, ishlab chiqarish zanjiri, iqtisodiy aloqalar va ekologik omillar bilan bog‘liq holda o‘rganish maqsadga muvofiq.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

XULOSA

Maktab geografiya kursida O‘zbekiston sanoat tarmoqlarini klasterli yondashuv asosida o‘rganish o‘quvchilarning iqtisodiy-geografik bilimlarini chuqurlashtirish, hududiy tafakkurini rivojlantirish va nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Klasterli yondashuv sanoat tarmoqlarini o‘zaro bog‘liq ishlab chiqarish tizimi sifatida o‘rganish imkonini beradi.
2. Paxta-to‘qimachilik, meva-sabzavotni qayta ishlash, avtomobilsozlik, neft-gaz, kimyo va elektrotexnika sanoati mazkur yondashuvni qo‘llash uchun muhim ta’limiy misollar hisoblanadi.
3. Xarita, klaster sxemasi, statistik jadval, loyiha va muammoli topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning amaliy geografik kompetensiyalarini rivojlantiradi.
4. Sanoat klasterlarini o‘rganish orqali o‘quvchilarda ishlab chiqarish aloqalarini tahlil qilish, hududiy ixtisoslashuvni aniqlash va iqtisodiy-geografik xulosa chiqarish ko‘nikmalari shakllanadi.
5. Klasterli yondashuvni raqamli xaritalar, elektron ta’lim resurslari va fanlararo integratsiya bilan uyg‘unlashtirish geografiya ta’limi samaradorligini oshiradi.

Shunday qilib, O‘zbekiston sanoat tarmoqlarini klasterli yondashuv asosida o‘rganish maktab geografiya kursining mazmunini boyitish, o‘quvchilarda iqtisodiy-geografik tafakkurni shakllantirish va ularni mamlakatning real iqtisodiy jarayonlarini tahlil qilishga tayyorlashda muhim metodik ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi. **Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi.** Havola: https://uzedu.uz/
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. **2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida.** Havola: https://lex.uz/docs/5841063

3. Porter M.E. **The Competitive Advantage of Nations.** – New York: Free Press, 1990. Havola: https://www.hbs.edu/faculty/Pages/item.aspx?num=193

4. Кетова Н.П. Основы региональной экономика.– Москва. 2001. – С. 348.

5. Яшевой, Г.А., Гранберг, А.Г. Кластерная политика в экономике России Национальные приоритеты России. 2009. № 1, С. 116–130.

6. Marshall A. **Principles of Economics.** – London: Macmillan, 1890. Havola: https://www.econlib.org/library/Marshall/marP.html

7. Krugman P. Geography and Trade. – Cambridge: MIT Press, 1991. Havola: https://mitpress.mit.edu/9780262610865/geography-and-trade/

8. Алимов Р., Камилова М., Курбанова Д.. Кластерная концепция экономического развития: теория и практика. Тошкент. 2005- с. 36.

9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. **Rasmiy statistik ma'lumotlar.** Havola: https://stat.uz/

10. World Bank. **Uzbekistan: Country Economic Memorandum.** Havola: https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan

11.UNIDO. **Industrial Development Report.** Havola: https://www.unido.org/resources-publications-flagship-publications-industrial-development-report-series

12. Lambert D., Morgan J. **Teaching Geography 11–18: A Conceptual Approach.** – Maidenhead: Open University Press, 2010. Havola: https://www.mheducation.co.uk/teaching-geography-11-18-a-conceptual-approach-9780335234742-emea-group

13. Roberts M. **Geography Through Enquiry: Approaches to Teaching and Learning in the Secondary School.** – Sheffield: Geographical Association, 2013. Havola: https://www.geography.org.uk/